

OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA

KIRUVCHILAR UCHUN

"XORAZM ILM ZIYO" NTM

+998995607273 raqamiga SMS yuboring.	3129IGOE* Familiya Ism (Viloyat) *JAVOBLAR
Namuna: 3129IGOE*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)*BAADACCCAACA...	
Izoh:	
1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida O',G' harflari qatnashsa ularni o'rniga U va G harflarini ishlating.	
2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing.	
3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. 4.07.2019-6.07.2019	
4) Repetitsion testning sms javoblari soat 21:00 gacha qabul qilinadi.	
Natijalar: Har kuni @repetitsiontestuz kanalida soat 22:00 e'lon qilinadi	

SAVOLLAR KITOBI

999987

BLOKLAR:

Matematika (3.1)

Fizika (2.1)

Ona tili va adabiyoti (1.1)

Test topshiruvchi:

F.I.O.


IMZO

DIQQAT!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

MATEMATIKA

1. 6 xonali son berilgan. Uning birinchi raqami 1 ga teng. Shu sonning birinchi raqamini uning oxiriga ko'chirsak, berilgan sondan uch marta katta son hosil bo'lsa, shu sonni toping.
A) 142857 B) 277954 C) 142785 D) 272875
2. Hisoblang: $\frac{1}{4} + \frac{2}{6} + \frac{3}{4} + \dots + \frac{15}{4} + \frac{16}{6}$
A) 28 B) 24 C) 35 D) 30
3. Ifodani soddalashtiring: $\frac{b^2 - a^2 + 2b + 1}{1 + b - a} - b$.
A) $a - 2b$ B) $a + 1$ C) $2a - b$ D) $a - b$
4. $|4\sqrt{3} - 7| - |5\sqrt{2} - 7|$ nimaga teng?
A) $5\sqrt{2} - 4\sqrt{3}$ B) $4\sqrt{3} + 5\sqrt{2} - 14$
C) $14 - 4\sqrt{3} - 5\sqrt{2}$ D) $4\sqrt{3} - 5\sqrt{2}$
5. Xitoy aholisining soni $1,3 \cdot 10^9$ kishini, Italiyaniki esa $5,6 \cdot 10^7$ kishini tashkil etadi. Xitoy aholisining soni Italiya aholisining sonidan necha marta ko'p?
A) taxminan 24 marta B) taxminan 22 marta
C) taxminan 21 marta D) taxminan 23 marta
6. Tenglamani yeching: $\sqrt{15-x} + \sqrt{3-x} = 6$.
A) -3 B) -2 C) 1 D) -1
7. Tengsizlikni yeching: $(5-2x)^{10} < (-x^2 - 4x - 7)^5$
A) \emptyset B) $(-\infty; 2,5)$
C) $(1; 2,5)$ D) $(1; 2,5) \cup (2,5; 3)$
8. Hisoblang: $1 \cdot 4 + 2 \cdot 7 + 3 \cdot 10 + \dots + 11 \cdot 34$
A) 1440 B) 2028 C) 1210 D) 1584
9. Soddalashtiring: $2 + \operatorname{tg} \alpha \cdot \operatorname{tg} \beta + (\operatorname{tg} \alpha + \operatorname{tg} \beta) \cdot \operatorname{ctg}(\alpha + \beta)$
A) 3 B) 4 C) 2 D) 1
10. $\sin 200x \cdot \cos 199x - \cos 200x \cdot \sin 199x = 0$ tenglamaning $[0; 4\pi]$ oraliqqa tegishli ildizlari soni nechta?
A) 2 B) 4 C) 5 D) 3
11. Grafik ko'rinishda berilgan funktsiyani toping.
- 
- A) $y = \left(\frac{1}{2}\right)^x$ B) $y = e^x$
C) $y = 2^x$ D) $y = \log_2 x$
12. $y = (x+3)^{\frac{6}{7}}$ funktsiyaning aniqlanish sohasini toping.
A) $(-\infty; \infty)$ B) $(-\infty; -3) \cup (3; \infty)$
C) $(-\infty; -3) \cup (-3; \infty)$ D) $(-3; \infty)$
13. Agar $25^x = 27$ bo'lsa, 5^x ning qiymatini toping.
A) $2\sqrt{3}$ B) $3\sqrt{2}$ C) $3\sqrt{3}$ D) $2\sqrt{5}$
14. $\left\{ \frac{\{\lg 200\}}{\{\lg 50\}} \right\} + \{\log_5 12,5\}$ ni hisoblang. Bunda $\{a\} - a$ sonning kasr qismi.
A) 1 B) $\log_5 4$ C) $\log_5 2$ D) 0,5
15. Tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
 $\sqrt{2 \log_8(-x)} - \log_8 \sqrt{x^2} = 0$
A) -69 B) -3 C) -65 D) -7
16. Funktsiyani hosilasini toping: $y = e^{-x} - 2x^7$
A) $y' = -e^{-x} - 2x^6$ B) $y' = -e^{-x} - \frac{x^8}{4}$
C) $y' = e^{-x} - 14x^6$ D) $y' = -e^{-x} - 14x^6$
17. $\int f'(x) dx = 2x^3 - 6x^2 + C$, ($C \in R$) tenglik berilgan. $f(x)$ funktsiyaning minimum nuqtasi absissasini toping.
A) 2 B) 17 C) -17 D) -2
18. Teng yonli ABC uchburchakda AC asos, $AB = 20$, $\cos A = \frac{2\sqrt{6}}{5}$ bo'lsa, asosga o'tkazilgan balandlikni toping.
A) 1 B) $\frac{\sqrt{6}}{5}$ C) 2 D) 4
19. Agar to'g'ri to'rtburchakning perimetri 14 ga teng bo'lsa, uning yuzasini eng katta qiymatini toping.
A) 12 B) 12,75 C) 12,25 D) 14
20. ABC uchburchakda $AB = 5$, $BC = 6$ va $CA = 7$ bo'lsin. Unga ichki chizilgan aylanaga AC tomonga parallel qilib o'tkazilgan urinma ABC uchburchakdan BMN uchburchak ajratadi. BMN uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusining ABC uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusiga nisbatini toping.
A) $\frac{2}{9}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{5}{18}$ D) $\frac{7}{18}$
21. Agar ABC uchburchakning uchlari $A(a;4)$, $B(-3;0)$ va $C(7;0)$ nuqtalarda va $\angle BAC = 90^\circ$ bo'lsa, a ning qiymatini toping.
A) 5; -1 B) -5; 1 C) -5; -1 D) 5; 1
22. Uchburchakli og'ma prizmaning yon qirralaridan biridagi ikki yoqli burchak 120° ga teng, prizmaning shu qirrasidan boshqa yon qirralarigacha masofalar 16 sm va 14 sm. Agar prizmaning yon qirradi 20 sm bo'lsa, uning yon sirtining yuzini (sm^2) toping.
A) 1120 B) 900 C) 1000 D) 1100
23. $ABCD$ parallelogrammning diagonallari O nuqtada kesishadi, $\overline{BO} = k \cdot \overline{BD}$ tenglik bajariladigan k sonining qiymatini toping.
A) 0,75 B) 0,2 C) 0,5 D) 1
24. 6 ta katakni 2 ta qizil, 1 ta oq, 1 ta ko'k, 1 ta qora, 1 ta yashilga necha xil usul bilan bo'yash mumkin?
A) 360 B) 720 C) 96 D) 120
25. To'g'ri berilgan integrallash formulalarini tanlang:
1) $\int \sin(kx+b) dx = -\frac{1}{k} \cdot \cos(kx+b) + C$
2) $\int \cos(kx+b) dx = \frac{1}{k} \cdot \sin(kx+b) + C$
3) $\int \operatorname{tg}(b-kx) dx = -\frac{1}{k} \cdot \ln |\cos(b-kx)| + C$
A) 1; 2; 3 B) 1; 2 C) 2; 3 D) 1; 3

26. Quyidagilardan qaysilari axborot ko'rinishi hisoblanadi?

- A) uzlukli, uzluksiz B) grafikli, tovushli
C) tushunarli, ishonchli D) Karrali, dolzarb

27. Quyidagi *html*-hujjat kodi yozilishi bo'yicha kataklar ketma-ket sanalganda nechanchi katakda og'ma shiriftli marketlangan ro'yxat qo'llanilgan?

```
<table><tr><td colspan=2>
<a href="test">test</a></td><td rowspan=2>
<sup><li>test</sup></ul><td><tr><td>
<img src=test.jpg>test</td></td>
</dl><sub><dt>test</sub></dl></td></tr></table>
```

- A) Birinchi katakda B) Ikkinchi katakda
C) Uchinchi katakda D) To'rtinchi katakda

28. 1001, 101, 100 butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig'indisini aniqlang.

- A) 10010 B) 1202 C) 10011 D) 1204

29. HTML hujjat tilida 6ta ustun va 5ta satrdan iborat jadval tuzishda nechta $\langle tr \rangle$ va $\langle td \rangle$ teglaridan foydalaniladi.

- A) 6ta $\langle tr \rangle$, 6ta $\langle td \rangle$ B) 5ta $\langle tr \rangle$, 30ta $\langle td \rangle$
C) 6ta $\langle tr \rangle$, 5ta $\langle td \rangle$ D) 5ta $\langle tr \rangle$, 6ta $\langle td \rangle$

30. Paskal tilining faqat modullari keltirilgan javobni aniqlang.

- A) SYSTEM; CRT; GRAPH
B) SYSTEM; SCT; GRAPH
C) SYSTEM; CLRSCR; GRAPH
D) SYSTEM; CRT; CLEARDEVICE

FIZIKA

31. Yuqoriga otlangan jismga 5 N og'irlik kuchi ta'sir qilsa, yerga qanday kuch ta'sir etadi (N)?

- A) 7,5. B) 10. C) 5. D) 0.

32. m massali jism suvda v tezlikda tekis cho'kadi. Agarda arximed kuchi hisobga olinmasa, jismni suvda $2v$ tezlikda tekis ko'tarish uchun qanday kuch kerak? Qarshilik koeffitsiyenti ikkala holda ham bir xil. Qarshilik kuchi tezlikka proporsional. g-erkin tushish tezlanishi.

- A) mg . B) $2mg$. C) $4mg$. D) $3mg$.

33. Avtomobil qavariq ko'priki 10 m/s tezlik bilan harakat qilmoqda. Uning ko'priki tepasidagi og'irligini (kN) va unga ta'sir qiluvchi barcha kuchlarning teng ta'sir etuvchisini toping (kN). Ko'prikning egrilik radiusi 90 m, avtomobil massasi 9 t.

- A) 70; 80. B) 80; 0.
C) 70; 10. D) 80; 10.


34. Bir xil 2 nC dan elektr zaryadiga ega bo'lgan, radiuslari 2 cm va 4 cm ga teng bo'lgan metall sharlar bir-biriga tekizilsa, ularning o'zaro elektr ta'sir potentsial energiyasi qanday o'zgaradi?

- A) $9/8$ marta kamayadi. B) $10/9$ marta ortadi.
C) 2,25 marta ortadi. D) o'zgarmaydi.

35. Proton ϑ ($\vartheta \ll c$) tezlik bilan $\vartheta/2$ tezlikka ega bo'lgan pozitronga yetib olmoqda. Ularning tezliklar bir to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalgan, ular orasidagi dastlabki masofa katta bo'lgan. Proton bilan ta'sirlashuvdan so'ng pozitronning natijaviy tezligi qanday bo'lishini baholang. Protonning massasi pozitronnikidan 1840 marta ortiq.

- A) $-3\vartheta/2$. B) $3\vartheta/2$ C) $\vartheta/2$ D) 2ϑ

36. Rasmda moddiy nuqta tezligining vaqtga bog'liqlik grafigi tasvirlangan. Vaqt $t=8$ s bo'lganda tezlik (m/s) qancha bo'lgan?




- A) 9,8. B) 9,4. C) 10,1. D) 8.

37. Dastlabki tezligi 20 m/s bo'lgan avtomobil 50 m yo'l bosib to'xtadi. Agar harakat tekis sekinlanuvchan bo'lsa, bu harakat davomiyligi (s) qanday?

- A) 6. B) 4. C) 8. D) 5.

38. Jism bosib o'tgan yo'lining vaqtga bog'lanish grafigi paraboladan iborat. Jismning harakat boshidan 3 s ichidagi o'rtacha tezligini toping (m/s).



- A) 10. B) 7. C) 9. D) 8.

39. Kvant mexanikasida elektronlar sifatida o'rganiladi.

- A) bulut. B) zarra.
C) zarra va bulut. D) TJY.


40. Magnitlanish vektori (\vec{J}) va magnet maydon kuchlanganlik vektori (\vec{H}) orasidagi bog'lanishni toping.

- A) $\vec{J} = \chi \vec{H}$. B) $\vec{J} = \vec{H}$.
C) $\vec{J} = (\chi - 1) \vec{H}$. D) $\vec{J} = (\chi + 1) \vec{H}$.

41. Ikki mol karbonat angidrid gaziga izotermik jarayonda 16 J issiqlik berildi? Bunda gaz qancha ish bajardi (J)?


- A) 12. B) 16. C) 8. D) 6.

42. Massasi 1 kg bo'lgan suyuqlik haroratning unga berilgan issiqlik miqdoriga bog'liq o'zgarish grafigidan foydalanib, suyuqlikning solishtirma issiqlik sig'imini (kJ/kg·K) va solishtirma bug'lanish issiqligini (MJ/kg) aniqlang?



- A) 15; 3. B) 20; 4. C) 20; 3. D) 15; 6.

43. Ikki atomli gaz dastlab adiabatik, so'ngra izobarik kengaydi. Ideal gazning boshlang'ich temperaturasi oxirgi temperaturasiga teng. Gaz izobarik kengayishda 14 kJ issiqlik oldi. Adiabatik kengayishda va izobarik kengayishda qancha ish bajarilgan (kJ)?



- A) 12,8; 8,7. B) 12,6; 8,4.
C) 10; 4. D) 12,4; 8,6.

44. Ikki idishda gaz bor. Ikkinchi idishdagi gaz konsentratsiyasi birinchisidan 3 marta ortiq, absolut temperaturasi 2 marta ortiq. Bosimlar nisbati p_2/p_1 nimaga teng?

- A) $1/6$. B) 6. C) $1/2$. D) 2.

45. Adiabatik jarayonda gaz 16 J ish bajardi. Bunda gazning ichki energiyasi qanchaga (J) o'zgardi?

- A) -16. B) 8. C) 16. D) -12.

46. Lazer nurlari vaqt va fazo bo'yicha hisoblanadi.

- A) kogerent. B) qutblanmagan.
C) kogerent bo'lmagan. D) monoxromatik bo'lmagan.

47. Kepler trubasi okulyarining fokus masofasi 10 cm. Okulyar bilan obyektiv orasidagi masofa 2,1 m.


Teleskopning kattalashtirishini toping.

A) 20. B) 30. C) 5. D) 10.

48. O'tkazgichdagi tok zichligi j , elektr maydon kuchlanganligi E . Birluk hajmdan ajralib chiqayotgan Joul issiqligining quvvati ω nimaga teng?

A) j/E . B) jE . C) $1/jE$. D) E/j .

49. Quyida keltirilgan sxemadan foydalanib K va L nuqtalar orasida umumiy qarshilikni aniqlang.



A) $3R$. B) R . C) $10R$. D) $9R$.

50. Yuk mashinasi yo'lining 100 m radiusli burilish qismida 108 km/h tezlik bilan harakatlanmoqda. Mashina olib ketayotgan idishdagi suv sirti bunda statsionar og'ma holatga kelgan. Suv sirtidan 10 cm masofada suv ichida joylashgan nuqtadagi gidrostatik bosim (kPa) nimaga teng? $g=10 \text{ m/s}^2$.

A) $\sqrt{1,33}$ B) $\sqrt{1,11}$ C) 1 D) $\sqrt{1,81}$

51. Quvvati 3 kW bo'lgan dvigatel qayiqqa 5 m/s tezlik bera oladi. Quvvati 4 kW bo'lgan dvigatel bu qayiqqa qanday maksimal tezlik (m/s) bera oladi? Suvning qarshilik kuchi tezlikka proporsional deb hisoblang.

A) 3,9. B) 5,8. C) 4,8. D) 6.

52. Bochkadagi suvning balandligi h . Bochkaning eng pastki nuqtasidan S yuzali kichik teshik ochildi. Kichik t vaqt ichida undan qanday hajmdagi suv oqib chiqadi?

A) $St\sqrt{2h/g}$ B) $St\sqrt{2g/h}$

C) $St\sqrt{2gh}$ D) $St\sqrt{gh}$

53. Bikrligi 450 N/m bo'lgan, dastlab cho'zilmagan prujinaga $m=4,5$ kg massali yuk osilib, qo'yib yuborildi. Prujina deformatsiyasi nolga teng bo'lgan vaqtda yukning tezligi qanday bo'ladi (m/s)?

A) 10. B) 30. C) 0. D) 20.

54. Dastlab cho'zilmagan, bikrligi $k=131$ N/m bo'lgan prujinaga $m=131$ g yuk osib qo'yib yuborilganda A amplitudali garmonik tebranishlar yuzaga keldi. Prujina maksimal cho'zilganda yukning balandligi $h=0$ deb hisoblab, yukning kinetik energiyasi minimal bo'lgan paytda uning tezlanishi qanday bo'ladi (m/s²)?

A) 0. B) 9,8. C) 4,9. D) 5,4.

55. Amplitudasi 2,2 cm bo'lgan prujinali mayatnikda yuk muvozanat vaziyatidan boshlab siljishi to'rtinchi marta 1,2 cm ga ga teng bo'lgan vaqt ichida qanday yo'lni (cm) bosib o'tadi?

A) 10. B) 8,8. C) 5,6. D) 7,6.

56. Metallarni qizdirishdan elektronlarning undan otilib chiqishi... deb ataladi.

A) fotoelektron emissiya.

B) avtoelektron emissiya.

C) termoelektron emissiya.

D) ikkilamchi elektron emissiya.

57. Elektron pozitron bilan farq qiladi?

A) spini. B) magnit momenti.

C) zaryadi. D) massasi.

58. Yashash vaqti cheksiz bo'lgan zarralar . . .zarralar deb ataladi.

A) yengil. B) stabil.

C) nostabil. D) og'ir.

59. Uran $^{234}_{92}\text{U}$ izotopidagi ikkita α va ikkita β yemirilishga uchraganidan so'ng yadro dagi elektronlar soni nechtaga teng bo'ladi?

A) 50. B) 90.

C) yadroga elektron bo'lmaydi. D) 40.

60. Spin qanday birlikda o'lchanadi?

A) $J \cdot s^2$. B) $J \cdot s$.

C) birliksiz o'lcham. D) $N \cdot m$.

ONA TILI VA ADABIYOTI

61. O'rxun-enasoy bitiktoshlarining siri V.Tomsen tomonidan ochildi. Bu vaqtda V.Radlov nechta harfni o'qishga ulgurgan edi?

A) 8 ta B) 10ta C) 6ta D) 11 ta

62. Quyidagi qo'shimchalardan nechitasi ayrim so'zlarga qo'shilib uning yetakchi morfemasida fonetik o'zgarish bo'lishiga sabab bo'la oladigan omonim so'z yasovchi qo'shimcha sanaladi?

-a, -q, -qi, -ar, -ay, -la, -ilia, -ma, -y, -ing.

A) 9 tasi B) 8 tasi C) 7 tasi D) 6 tasi

63. Qaysi qatorda -ki vositasi bosh gap bilan ergash gapni bog'lovchi vosita emas?

A) Aybing shuki, uchrab qolding qornim ochganda.

B) Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi.

C) Deydilarki, arg'amchiga qil ham mador.

D) Qarabsizki, bir zumda hammasi muhayyo bo'ladi-qoladi.

64. Nechta so'z noto'g'ri yozilgan?

ta'magir, tavg'ir, ta'mir, tamirlamoq, tahqir, tamosha,

tadbiq, taqazo, taxdid, tavsir, tafsif, taziq

A) 9 ta B) 11 ta C) 10 ta D) 8 ta

65. Quyidagi gaplarning qaysi birida so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A) Qoratepa guzari dam olish kunlari juda gavjum edi

B) Dasht havosi musaffo, yengil shabada kishiga orom beradi

C) Cho'l qovunlari pishay-pishay deb turibdi

D) U shahar tashqarisida bahaybatli dala hovli ham qurgan ekan

66. Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan?

A) Lahm go'shtlarni ajratib oldi va rastaga terib sota boshladi.

B) Mashina dovon tepasiga ko'tarildi.

C) Kampir bolalarga bir qisimdan mayiz ulashdi.

D) Bola ikki yoshligidan rovon gapira boshladi.

67. Bo'g'iz undoshi bilan boshlanishi kerak bo'lgan so'zlarni aniqlang.

1. ..atti – harakat, 2. ..org'in, 3. ..urram, 4. ..adik

A) 2,4 B) 1,2,4 C) 2,3,4 D) 1,3

68. Omonimik xususiyatiga ega so'zlar kompozitsiyasidan hosil bo'lgan qo'shma otlarni belgilang.

1) otquloq; 2) qo'ymijoz; 3) qovoqari; 4) oshqovoq; 5)

qirqquloq; 6) surbet.

A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 4, 5

C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 4, 5, 6

69. Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitardi. Otli so'z birikmalari nechta?

A) 1 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 2 ta

70. Qaysi gapda kompozitsiya va affiksatsiya usuli bilan yasalgan sifatlar yasama so'zga tobelangan?

- A) Boychechakning tovlanib turgan gulbarglari hammaning ko'nglidagi gina-advovatga barham berdi.
 B) Nodon, kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi.
 C) Ko'z oldimdan ichakuzdi qiliqlar qilayotgan qiziqchilar, toshlarni osmonga irg'itib o'ynayotgan polvonlar ketmasdi.
 D) Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi pishmagan qovunga o'xshaydi.
71. **Ikki ko'zi har nav mollar bilan to'la xurjanni yelkaga tashlab, inqillab kirdi (O.).** Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.
 A) vazifadoshlik B) sinekdoxa
 C) metonimiya D) metafora
72. "Derazamning oldida bir tup O'rik oppoq bo'lib gulladi". Tagiga chizilgan so'zda urg'u nechanchi bo'g'inga tushadi?
 A) 2-bo'g'iga B) vaziyatga qarab 1- yoki 2-bo'g'iga
 C) to'g'ri javob yo'q D) 1-bo'g'iga
73. Fe'ning qaysi mayli har uchala zamoni ham ifodalaydi?
 1) xabar mayli; 2) buyruq-istak mayli; 3) shart mayli.
 A) 2,3 B) 1,2 C) 1,2,3 D) 1
74. Inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladigan uslubni belgilang.
 A) so'zlashuv uslubi B) ilmiy-ommabop uslub
 C) badiiy uslub D) publitsistik uslub
75. Noto'g'ri yozilgan so'zni toping.
 A) tadqiqot B) tadbir
 C) taqdim D) ta'mir
76. Andalib bir savt ila bo'ldi giriftori qavas (Hmaza). Ajratib ko'rsatilgan andalib so'zining ma'nodoshini toping.
 A) bulbul B) sa'va C) qumri D) to'ti
77. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida shart munosabati ifodalangan bo'lsa, ular orasiga qanday tinish belgi qo'yiladi?
 A) ikki nuqta B) vergul
 C) nuqtali vergul D) tire
78. Qaysi yasama so'zlarda morfemalarning agglutinatib tabiati buzilganini kuzatish mumkin?
 1) yasha; 2) o'ymakor; 3) parvoyim; 4) o'rnat; 5) yuragi; 6) quvnoq; 7) baadob.
 A) 1,4,6,7 B) 1,3,5,6 C) 1,6,7 D) 1,2,6
79. «Sandug'ach» so'zining ma'nosini toping.
 A) qaldirg'och B) to'ti
 C) bulbul D) sa'va
80. Tosh tuz tuyiladigan o'g'ir ichidan uzun qayroqni olib, pichoqni qayray boshladi. Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukmlarni ajrating.
 1) asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan 6 ta so'z qatnashgan;
 2) fe'ldan yasalgan so'z qatnashgan;
 3) so'zlar tarkibida til undoshlarining barcha turi mavjud;
 4) bir so'z tarkibida o'zlik nisbat qo'shimchasi qatnashgan;
 5) fonetik o'zgarishga uchragan yasama so'z mavjud;
 6) 1 ta hoi va 1 ta aniqlovchi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan;
 7) 2 ta ko'makchi fe'l qatnashgan.
 A) 1, 3, 4 B) 3, 4, 6, 7
 C) 2, 5, 6, 7 D) 1, 2, 3, 5
81. Qaysi javobda quyida keltirilgan gaplarning kesimiga to'g'ri izoh berilgan?
 So'z – ulug' qudrat, eritgay toshni ham, muzlarni ham.
 A) qo'shma ot kesim, sodda ot kesim
 B) sodda ot kesim, qo'shma fe'l kesim
 C) sodda ot kesim, sodda fe'l kesim
 D) faqat qo'shma ot kesim
82. "Avesto"da "Bo'ydor qudratli Mitradan so'lda uchar" deb kim ta'riflanadi?
- A) Sraosha B) Xaoma C) Rashnu D) Ashi
83. Fors- tojik tilida yozilgan "Maslak ul-muttaqiy" asarining muallifini toping.
 A) Poshshoxo'ja o'g'li Xoja B) Xo'janazar Huvaydo
 C) Komil Xorazmiy D) So'fi Olloyor
84. Nodiraning nisbatan to'la deb hisoblangan turkiy devonida necha g'azal mavjud?
 A) 189 B) 195 C) 184 D) 187
85. A.Navoiyning lug'atshunoslikka oid asarini toping.
 A) "Majolis un-nafois"
 B) "Sab'at-u abhur"
 C) "Mezon ul- avzon"
 D) "Muhakamat ul-lug'atayn"
86. "Rustamxon" dostonida Huroyimning kanizi kim edi?
 A) Himcha B) Bahragul
 C) Suqsuroy D) Oqqiz
87. Katta epik janrlarni toping. 1.Epos, 2.epik doston, 3.qissa, 4.roman, 5. hikoya, 6.epopeya
 A) 1,2,4,6 B) 1,3,4,6
 C) 2,3,5,6 D) 1,3,4,6
88. Maqsud Shayxzodaning qaysi she'riy to'plamlari 1930-yillarda yaratilgan?
 1. "O'n she'r", 2. "Kurash nechun" 3. "Undoshlarim" 4. "Jang va qo'shiq"
 5. "Uchinchi kitob", 6. "Jumhuriyat" 7. "Ko'ngil deydi" 8. "Kapitan Gastello"
 A) 1,2,5,6 B) 1,3,5,6,7,8
 C) 2,4,7,8 D) 1,3,5,6
89. A. Muxtorning "Tug'ilish" she'rida yerdan ko'tarilayotgan hovur nimaning zimdan qimirlashiga o'xshatilgan?
 A) ildizlar. B) g'iyohlar.
 C) yaproqlar. D) maysalar.
90. N.Ganjaviy Iroq hukmdori To'g'rul II ning iltimosiga ko'ra qaysi dostonini yaratadi?
 A) "Xusrav va Shirin" B) "Layli va Majnun"
 C) "Haft paykar" D) "Maxzan ul-asror"

